

Uzbekistan Airways va Azerbaijan Airlines ufqlarni kengaytirmoqda: yangi code-share kelishuvi va yo'lovchilar uchun ko'proq qulaylik!

2025 16 Iyun

2025-yil 13-iyun kuni Uzbekistan Airways'ning Toshkentdagi bosh ofisida O'zbekistonning flagman aviatashuvchisi va Ozarbayjonning milliy aviatashuvchisi – "Azerbaijan Airlines" (AZAL) aviakompaniyasi O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida sayohat qilish uchun yangi ufqlarni ochadigan parvozlarni birgalikda amalga oshirish (code-share) to'g'risidagi bitimni imzoladi.

Code-share kelishuvi – bu aviakompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik shakli bo'lib, unda ular o'z parvozkodlari ostida hamkor aviaqatnovlariga chiptalarni sotish va yo'lovchilarga yo'nalishlar va tutashuvlarning kengroq tanlovini taqdim etish orqali birgalikda parvozlarni amalga oshiradilar.

Yangi hamkorlik tufayli yo'lovchilarga Toshkentdan Bokuga va ortga qaytuvchi, shuningdek, Bokudan Toshkentga va ortga qaytuvchi yo'nalishlar bo'yicha sayohatlarni rejalashtirishda yanada ko'proq moslashuvchanlik taqdim etiladi. Endilikda sayohatchilar ikkala aviakompaniyaning haftasiga mavjud to'qqizta aviaqat

Kelishuv, shuningdek, tranzit yo'lovchilarga tutashuvlarning keng tanlovini taqdim etib, Toshk

Bundan tashqari, Uzbekistan Airways yo'lovchilari O'zbekistonning ikkinchi eng muhim sayyoh "Azerbaijan Airlines" aviakompaniyasining Samarqand – Boku – Samarqand yo'nalishi bo'yicha parvozlaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Shuhrat Yadgarov, Uzbekistan Airways Boshqaruv raisining tijorat va turizm bo'yic

"Har bir yangi kelishuv bilan biz shaharlarimiz va madaniyatlarimizni yaqinlashtirmoqdamiz. A share – bu nafaqat yo'lovchilar uchun qulaylik, balki O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi do komilki, bu hamkorlik sayohatlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi va xalqlarimizni yaqinlashtiradi."

Shuningdek, “Azerbaijan Airlines” aviakompaniyasi tijorat direktori Jamil Manizade quyidagilarni ta’kidladi:

“Uzbekistan Airways bilan hamkorlik aviakompaniyalarning nafaqat yo’nalishlar tarmog’ini kengaytirish, balki mamlakatlarimiz xalqlari o’rtasidagi aloqalarni mustahkamlash istagini aks ettiradi. Biz yo’lovchilarga yanada ko’proq qulaylik, moslashuvchanlik va sayohat uchun yangi yo’nalishlarni taklif qilishdan mamnunmiz. Ushbu kelishuv Ozarbayjon va O’zbekiston o’rtasidagi yaqin hamkorlik, turizmni rivojlantirish va do’stlikni mustahkamlash yo’lidagi qadamdir.”

Kelishuv ikki mamlakat o’rtasidagi transport aloqalarini mustahkamlash, ishbilarmonlik va sayyohlik almashinuvini rivojlantirish, shuningdek, ikki milliy aviatashuvchining sa’y-harakatlarini birlashtirish orqali yo’lovchilarga xizmat ko’rsatish sifatini oshirish yo’lidagi muhim qadam bo’ldi.

Batafsil ma’lumot: www.uzairways.com

OAV uchun kontaktlar:

Jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi

"Uzbekistan Airways" AJ

pr@uzairways.com